

Date: 11thFebruary-2025

JAVLON JOVLIYEV IJODIDA MUSOFIRLAR TAQDIRINING BADIY IFODASI

Qurbanova Muxlisa

Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi o‘zbek nasning zabardast vakili Javlon Jovliyevning “Buxoro, Buxoro, Buxoro...” hikoyasi tahlilga tortilgan. Xususan, unda musofirlar hayotining badiiy ifoda etilishi va bu borada yozuvchi mahorati xususida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so`zlar: Javlon Jovliyev, nasr, hikoya, vatan, musofirlilik, mahorat.

Abstract: In this article, the story “Bukhara, Bukhara, Bukhara...” by Javlon Jovliyev, the leading representative of modern Uzbek art, is analyzed. In it, the artistry of the life of aliens and comments about this writer are described.

Key words: Javlon Jovliyev, prose, story, homeland, sojourn, skill.

Musofirlilik jamiyatimizdagи muhim ijtimoiy muammolardan biridir. Shu sabab bugungi kunda mazkur masalaning badiiy talqiniga bag‘ishlangan asarlar adabiyotimizda ko‘plab uchraydi. Ushbu mavzuda o‘zbek nasrida kichik janr hikoyadan tortib katta janr romangacha bo‘lgan badiiy asarlar yaratilgan. Chunki jamiyat hayotini faol kuzatuvchi va uni qayta badiiy jonlantiruvchi ijodkorlar hayotimizdagи mazkur muammoni teran idrok eta oladilar. Shuningdek, bu mavzu dolzarbli bilan ham kitobxonlar e’tiborini o‘ziga tortadi. Hozirgi davr nasrida musofirlilik mavzusi global migratsiya, iqtisodiy qiyinchiliklar va shaxsiy izlanishlar kontekstida keng yoritilmоqda. Istedodli yozuvchi Javlon Jovliyev ham “Buxoro, Buxoro, Buxoro...” hikoyasida musofirlar hayotini, bu hayotning mashaqqatini, ularning ruhiy kechinmalarini real aks ettirishga harakat qilgan.

Hikoyada Buxorodan Afg‘on yerlariga qulоq (o‘tgan asrning 1929-1933-yillarida mustabid sho‘ro tuzumi yer egalari, boy, o‘rta hol dehqon va chorvadorlarni “qulоq-mushtumzo‘r” nomi ostida sinf sifatida tugatish siyosatini olib borgan) qilingan oilaning musofirlilikdagи ayanchli taqdiri, iztiroblari 7-8 yoshli asar qahramoni tilidan hikoya qilinadi.

“Buxoroda tug‘ilgan bo‘lsam ham, esimni Qobul yaqinidagi qishloqda taniganman. Shu yerda otam safar pullarini qaysidir qallobga boy bergen-u, biz kambag‘allik ko‘chasiga irg‘itilganmiz”¹ degan misraning o‘ziyoq musofirlikda, mahalliy boy qo‘lida ijaraga turadigan oilaning og‘ir bir vaziyatda hayot kechirayotganidan dalolat beradi. Bu vaziyatni yanada chigallashtirib yuborgan voqeа oilaning katta farzandi og‘ir mehnat natijasida zotiljam kasalligini orttirib olgani va kasallik uni olamdan olib ketgani edi. Shundog‘am vatan sog‘inchida, begona yerlarga ko‘nikolmay kuyib yonayotgan onani farzand dog‘i butunlay jizg‘anakka aylantirdi.

¹ Jovliyev J. Ikki qalb uchrashuvi. -Toshkent: "Navro‘z". 2019.

Date: 11thFebruary-2025

Oradan qancha vaqt o'tishiga qaramay onaning ko'z yoshlari ado bo'lmadi. Bahorda hovlidagi o'rik gullashi, osmonda uchib yurgan qaldirg'ochlar ham, musichaning "ku-ku"lashlari ham, afg'on shamolining ko'pirishi ham, yarim oy shaklidagi taxta taroq, buxorocha tancha, oppoq mayin bir shirinlik ham Buxoroni eslatardi. Buxorodagi qarindoshlari, kata bog' hovlilari, o'sha farovonlikda o'tgan kunlarini qo'msab eslar, eslab yana yig'lardi. Yig'laganda ham ezilib, ko'zları yoshta qorilib, ho'ngrab-ho'ngrab yig'lardi. Biror kun yo'q ediki, u Buxoro uchun, bevaqt o'lган o'g'li uchun yig'lamagan bo'lsa.

-Nega yig'laysiz? Buxoro qanday joy o'zi?- degan savollarga,
-Yig'lamaydigan joy, deb javob berardi.

Shu javobning o'zidayoq musofir inson uchun o'z vatanidanda yaxshiroq joy yo'qligi o'z tasdig'ini topadi. Hikoyaning bir necha joyida vatan tushunchasi Jannatga tenglashtiriladi. Misol tariqasida: otasi rafiqasining joyini Jannatdan tilar, bolalar esa onasining joyi Buxoro bo'lsin deb duo qilardi. Sababi ular uchun eng yorug', eng tiniq, eng tinch joy Buxoro edi. U osmonlarda, bulutlar orasida, uylari oltindan, yegani asal, holva, shashlik! Dunyodagi barcha ertaklarning tugaydigan manzili edi. Xuddi "Susanbil"ga monand. Bolalar onasi va akasini Buxoroga deb ishonishar, tag zamiriga yetishmasada u yerda Vatan borligini bilishardi. Murg'ak qalblarning yagona orzusi esa Buxoroga yetishish edi.

Vatangadolikdagi oilaning noilojliklari, oilani boqish maqsadida bir burda non uchun hamma ishga roziliklari hikoyada "Otam tun-u kun ishlab qornimiz zo'rg'a to'yadigan taom olib kelardi. Oyoqlari og'rib oqsab yurardi, qo'llari yorilib, irib ketganlari esimda" jumlesi bilan ochib bera olgan.

Musofirlik odamni tez o'stiradi, tez katta qiladi deganlaridek, avval akasidan xayrashmaygina ajraladi, so'ngra onasidan kutilmaganda onasidan judo bo'lган jajji asar qahramoni ham ne-ne balolarga giriftor bo'ladi. Arzimagan pul evaziga bolalar shavqatsizlarcha ishlatilinadigan paxta tozalash sexida ishlaydi. Beton devorlar bilan o'ralgan zavodda ulkan stanoklar paxtaga qo'shib yashab qolish uchun tirishayotgan bolalarning sog'ligi, orzu-umidlari va hayotini ham yutib yubarayotgan edi. Korxona xo'jayini aslo qadam bosmaydigan bu yerga hatto uning iti ham kirgisi kelmaydi. Bevatan insonning qadri hattoki itchalik bo'lmasligini shuddi shu yerda ko'rishimiz mumkin. O'zga yurtda yurgan insonlar uchun musofir degan so'z peshonasiga qizdirib bosilgan tamg'a misoli tuyilur. Buni yorqin misoli "Uning musofirligini peshonasidan qarabgina emas, soyasini ko'rishlari bilan xo'rashga arziyadigan inson topilganidan suyunishardi". Ammo bu pullarsiz orzusiga yetisha olmasligini bilib, tinimsiz 9 oy ishlaydi. Shu vaqt mobaynida 14 bola ishdan ketadi. Ular nafaqat ishdan, balki bu yorug' olamdan ham ketishgandi. Bu yerda ishslashning oxiri sil, sil esa uni akasi va onasi ortidan qaro yerga olib ketishini bilgan bolakay ingliz tilini o'rganishga kirishadi va u o'lmaslik uchun ingliz tilini o'rganadi. Ilma'rifat esa unga hayoliga keltirmagan omad eshiklarini ochadi. Avval itxonaga xo'jayinini itiga qorovul bo'lib ishga kiradi. Itboqarlikda o'tgan 6 yili xo'jayinining marhamati bilan hayotining povdevorini ilm bilan ko'tarishiga imkon beradi. Olgan bilimlari va tajribalari unga mashhurlik, boylik beradi, ammo halovat topa olmaydi.

Date: 11thFebruary-2025

Ko‘nglidagi bo‘sqliqni, kemtiklikni to‘ldiradigan yagona narsa Vatan edi. Hikoya so‘ngida asar qahramoni 90 yil o‘tib, oliv orzusi, onasi va otasining armonlarini ushaltirishi, Buxoroga kelishi tasvirlanadi.

Asar qahramonlari uchun hamisha intiladigan oliv maqsad - musofirlik hayotining intihoga yetishi va Vatanga qaytish orzusi edi. Yosh qahramon onasining ta’riflarida, so‘zlaridan Buxoroni, Buxoro qiyofasidagi Vatanni Jannat deya tasavvur etadi. Musofirlik hayotida boy berilgan baxtni, akasi, ota-onasini shu yerda bir kun qayta topishiga umid bilan bilan yashaydi. Asar qahramoni to‘qsondan o‘tib musofirlikdan o‘z yurtiga kelgan ondagi uning qalb tug‘yonlari, tasavvurida o‘tmishining qayta jonlanishi kitobxonni tafakkurga, ona vatan qadrini chuqurroq his etishga chorlaydi. Asar qahramonlariga yozuvchi nom bermagan. Buning sababi esa musofirlikda hayot kechirgan va kechirayotgan insonlarning umumlashma obrazini yaratish maqsad qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jovliyev J. Ikki qalb uchrashuvi. – Toshkent: "Navro‘z". 2019.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
3. Qodirova, N. (2024). DALILLASH MUNAQQID USLUBINING MUHIM BELGISI SIFATIDA. Solution of social problems in management and economy, 3(1), 33-37.
4. Rajabova, M., Amonova, Z., Qodirova, N., Rajabova, R., & Ibotova, M. (2024). Interpretations on ecological problems and their solution in the works of Abu Ali ibn Sino. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 587, p. 02019). EDP Sciences.
5. Saidburkhonovna, Q. N. (2022). The Poetics of Jora Fozil's Stories. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.